



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



TURON AYOLLARI TARIX SAHNASIDA

Qarshiyev Fazliddin

Tojiyev Diyorbek

Sheraliyeva Xayriniso

Xonaliyev Xasan

Mamadaminova Barchinoy

*Termiz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
tarix va uni o'qitish metodikasi yo'nalishi talabalari*

Annotatsiya; *Ushbu maqolada shonli 2700 yillik tariximizdagi davlat va jamoat arbobi bo'lgan ayollar qisqacha qalamga olingan*

Kalit so'z; *Tomir xotun, Qabach xotun, Saroymulxonim, Qutlug'nigorxonim, Nodirabegim, Sobira xoldorova,,Yodgor nasriddinova,Xadicha sulaymonova.*

Ayol bu zot bu yorug' olamdagi barcha ezgu tilaklarga sazovor bo'lgan zotdir. Haq taolo jonzotlarni ayol qo'li bilan yaratgandir. Ayol bu ojizamas ayol mo'jiza. Shonli tariximizning qaysi bir qismiga nazar tashlamaylik ayollarning irodasiga matonatiga qo'il qolmay iloj yo'q. Ayniqsa erkaklar bilan bir qatorda yonmayon turib jang qilgan ayollarni ko'rsak yoki shohid bo'lganlarning so'zini tinglasak etimiz jumbushga keladi, ularning jasorati bizlarni yangi marralar sari oldimlashga undaydi.

Aynan bunday shahslardan biri shubhasiz Tomir xotundir, eramizdan oldingi 6-asrda yashab o'tgan bu shaxs tengsiz davlat arbobi, mohir sarkarda va qolaversa

irodali ona qiyofasida gavdalanadi. Ming afsuslar bo'lsinki uning hayotiy faoliyati haqida manbalarimiz yetarli emas. Ammo uning eron Ahamoniylari podshohi Kursh bilan kechgan munosabatlari haqida esa biz dearli to'laqonli tarzda manba sifatida yetib kelgan Gerodotning tarix asari yoki misr hukumdori bo'lgan Pompey Trogning asarlaridan ham ma'lumot olishimiz mumkin, hullas tomir xotunga keladigan bo'lsak ushbu nom manbalarda turlicha ataladi qadimgi yunonlar fors shohiga qarshi chiqqan massagetlar yo'l boshchisini Tomirius deb nomlaydi ruslar esa g'arb adabiyotlarini taxlil qilib

ushbu so'zni томирис deb nomlaydi. Ushbu nom talafuzda o'zgarib Tomir xotun deb o'z shevamizga moslashgan ammo biz chiqarayotgan maktab darsliklari yevropa standarti asosida chiqayotganligi sabab aynan Tomir xotinning ismini To'maris deb nomlaymiz. Shunday qilib fors shohi kursh O'rta osiyoga yurish qilishdan ikkiota maqsadni ko'zlagagan bo'lishi mumkin; birinchisi u misirga yurish qilishdan oldin davlatining shimoli g'arbiy qismini mustahkamlash maqsadini ko'zlagagan bo'lsa ajab emas, ikkinchi tomondan u o'z qo'shinini safini o'rta osiyolik abjir jangchilar bilan boitishni ham ko'zlagagan. U jayhundan o'tish uchun maxsus ko'priklar qurdiradi va eridan erta ajralib hokimiyat boshqaruvini o'z qo'liga olgan Tomir hotun bundan habar topgach fors shohi Kurshga elchi yuboradi jumladan elchi orqali u Kurshga bunday deydi,, ey fors shohi Kursh senga taklifimni bayon





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qilsam biz bilan olishishga ko'p ham chog'lanma va ko'prik qurishni to'xtat va ortinga qaytib ket bo'lmasa qoning to'kiladi , lekinmen sening qanday takabbur ekaningni yaxshi bilaman va agarda so'zlarim kor qilmasa senga bir taklifim bor jang jayhundan chap tomonda bir kunlik yo'l uzoqlikda bo'lsin yoki men tomonda jayhundan bir kunlik yo'l uzoqlikda bo'lsin "degan so'zlar bor edi. Shartga ko'ra Kursh Jayxundan bir kunlik yo'l qoldirib Massagetlar yurtiga bostirib kirdi . Massagetlar qo'shini 3 qisimga bo'lingan edi Tomir xotin o'g'li Spargas boshliq qo'shinni Kurshga qarshi yubordi ammo Kursh qo'shinining eng zaif qismini qarorgohda qoldirib o'zi yolg'ondan chekindi Spargas boshliq qo'shin Kurshning qo'shinini tor-mor etdi,Kursh esa hiyla yo'li bilan Spargasni asir oldi.Bu mag'lubiyatga chiday olmagan Spargas esa o'zini o'zi o'ldiradi bu voqeadan xabar topgan Tomir xotin esa Kurshga yana elchi yuborib shunday deydi,,Ey forslar shohi Kursh yaxshilikcha ortinga qayt aks holda Quyosh mabudini o'rta qo'yib qasam ichamanki shu qonsiragan boshingni qon to'la meshga botiraman" bu so'zlar unga kor qilmadi va yurishni boshladi ,,ikki o'rtada qattiq jang bo'ldi kamondan baravar o't otishishdi so'ng qilich va nayzalar ishga kirishdi" deydi Gerodot o'zining tarix asarida Pompey trog shunday ma'lumot qoldirgan jumladan Kursh,,Xaraliga " yurishidan oldin o'g'li Kambizga Bundan keyingi yurishlarni (Misrga) tushuntiradi va uni taxt vorisi etib tayinlagan. Bundan ko'rinadiki Kursh mag'lub bo'lishini taxmin qilgan. Tomir xotin esa o'z vatani sharafini munosib himoya qilgan va bu yo'lda o'z farzandidan ham voz kechishga tayyor bo'lgan jumladan u Spargas vafotidan keyin o'zini tez o'nglab oladi deyiladi.Bu Turon ayollarining buyuk irodasi borligidan dalolatdir. Bosqinchi baribir bosqinchi u o'zi bilan qanday madaniyat yoki dinni olib kirmasin baribir bosqinchi. Shunday bosqinchilarga qarshi kurashga erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham jang qilib matonat namunasini bo'lganligi bu biz uchun faxrdir shunday buyuk ayollar orasida Buxoro hukumdori Qabach xotun ham bordir chunonchi u arablarning o'rta Osiyogavyurishini 3 marta to'xtatishga uringan bu yurishlarni boshlagan Uboydulloh ibn ziyod,Ibn Usmonov va shu Uboydulloh ibn ziyodning o'g'li bu malikaga qoil qolishgan. Chunonchi u ayol boshi bilan arablarga qarshi 120 ming qo'shin to'play olgan. U 15 yil davomida davlatni boshqargan (680-695). Tug'ulgan yili taxminiy 1443- yil deb belgilanadigan Saroymulkxonim haqida juda ko'plab manbalar bor u o'z davrining eng buyuk davlat arboblardan biri sifatida qolaversa madaniyat va me'morchilik homiysi shuningdek yurt hukmi farmoni hisoblangan Amir Temurga ham davlatning tashqi va ichki ishlarida ko'mak bergan (shu o'rinda mashhur bir iborani eslab o'tishni joiz deb topdim Har bir kuchli erkakning ortida kuchli ayol turadi),buning yorqin dalili sifatida esa Amir Temur Mordin hukmdori Sulton Iso bilan gaplashib o'ziga bo'ysundirishni Saroymulkxonimga topshirgan. Yo bo'lmasa davlat ichiki ishlari borasida Amir Temurga yozma murojaat qilish Saroymulkxonimgagina ruxsat etilgan. U o'z hisobidan ko'plab madrasa, masjidlar xonaqohlar qurdirgan, shuningdek u mamlakatning eng kuchli amirlariga ham o'z hukmini o'tkaza olgan.Tarixning beshavqat tomonlari ham bordir bunga misol qilib jonini Amir Temurdan so'rab olgan Shodmulkbegim Saroymulkxonimni 1408- yilda suyukli nabirasi Xalil sulton qo'li bilan zaxarlab



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'ldirtiradi. O'z davrining buyuk „kayvoniy“ laridan biri bo'lgan asli kelib chiqishi mo'g'il xoni Yunusxonning qizi bo'lgan u turmush o'rtog'i Farg'ona hukumdori Umarshayx mirzo vafotidan so'ng davlatni boshqarishda katta ro'l o'ynagan shaxslardan biri sanaladi chunonchi u bu yo'lda o'g'li Zahiriddin Muxammad Boburga qo'ldan kelgan barcha yordamni bergan. Qo'qon adabiy muhitining gultoji shoirlar, rassomlar va barcha ilm ma'rifat egalarining homiysi Qo'qonda o'ziga xos adabiy va badiiy muhit yarataolgan qalami o'tkir zullisonayin shoiradir. 1792- yil Andijonda tavallud topgan bu shaxs 1807- yilda Marg'ilon hokimi Umarxonga nikohlanadi va u bilan sermazmun hayot kechiradi jumladan u erining taxtga chiqishi munosabati bilan Qo'qonga Andijon, Marg'ilon, Xo'jand, Toshkent tomonlardagi ilm ma'rifat egalarini saroyga chorlaydi. Umarxon bilan birgalikda Qo'qonni ilm ma'rifat markaziga aylantiradi. Ammo 1820- yilda Umarxonning vafot etishi Nodiraga og'ir alamli kunlarni boshlaydi. U bor dardu hasratini qog'ozga solib beqiyos g'azallar yozadi. Juda ko'plab shoirlarni to'plab ulardan devonini tuzushda yordam so'raydi. Erining vafotidan so'ng taxtga o'g'li Madalixon chiqqan bo'lsada davlatni Mohlaroyim boshqaradi (Nodira bu uning taxallusi) chunki Madalixon 14 yoshda edi taxtga chiqqandan. Ilim ma'rifat bulog'i bo'lgan bu ayol butun oilasi bilan birga 1842- yilda Amir Nasrullo tomonidan qatl etiladi. Sobira Xoldorova birinchi o'zbek oliy ma'lumotli ayol jurnalisti edi u jadidlarning ichida professional publitsist yo'q edi lekin bu marifatparvar ayol to'g'risida bunday deyolmaymiz. Uning ilmga chanqoqligini 6 oyda savod chiqarganidan ham bilsak bo'ladi. 1926- yilda u Moskva davlat jurnalistika institutiga o'qishga kiradi va eri bilan Moskvaga ketadi bu vaqtda uning 2 yashar o'g'li ham bor edi (uni qaynonasiga tashlaydi). Sobira Xoldorova o'qishdan qaytgach Yangi yo'l gazetasi bosh muharriri keyinchalik partiya xotin qizlar qo'mitasi a'zosi va raisi sifatida ham faoliyat olib boradi va 1930- yillar shamoli uni ham Sibirga olib boradi va 1950- yillargacha surgunda bo'ladi. Bolaligidan yetim bo'lib o'sgan Yodgora bu ism shu sababdan qo'yilgan, turli oilalarda o'sgan Yodgor nasriddinova oddiy yetim qizdan Kommunistik partiyaning raisi lavozimigacha bo'lgan darajaga ko'tariladi ammo sovet jamiyatida an'anaga aylangan qatog'on shamoli Yodgor nasriddinovani ham chetlab o'tmadi u 80- yillarda davlat mulkini talon taroj qilish aybi bilan vazifasidan ozod etilib surgun qilinadi o'z vazifasiga shu darajada mas'uliyat bilan yondashib qiyin masalani yoki qiyin holatlarni ham o'nglay olgan bu ayolga metin iroda, qiyinchilikga bardoshlilik, ilm ma'rifat va davlat boshqaruvidagi iste'dodi To'maris, Saroymulkxonim va Nodirabegim kabi buyuk kayvoniy ajdodlardan o'tgan bo'lsa ajabmas. Sharof Rashidov bir uchrashuvda biz bu masalani hal etaolmaymiz yaxshisi bu ishni Yodgor Nasriddinovaga topshiramiz degani ham uning darajasiga berilgan yuksak bahodir. Birinchi o'zbek oliy ma'lumotli ayol huquqshunosi O'zbekiston ssr fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, O'z ssr adliya vaziri bo'lgan Xadicha sulaymonovanning ilm yo'li ikkinchi jahon urushi qatnashchisining kondagi maktabida boshlangan shu darajadan huquqshunoslik fanlari doktori professor va akademik darajasiga erishish bu shaxsning taqdiriga bitilgandek go'yo. Bu ayol yana O'zbekiston ssr oliy sudi raisi va o'zi o'qigan institutning rektori kabi yuqori darajalarga erishgan, shuningdek u O'zssr ministrlar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



soveti huzuridagi adliya komissiyasi raisi kabi lavozimlarda ham ishlagan. Shuningdek u O'zssr fanlar akademiyasining falsafa va huquq instituti va Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutlarining tashkil etish tashabbuskorlaridan biri hisoblanadi. 1963- yil 26- noyabrda og'ir kasallik bilan Toshkentda vafot etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jamiyatda ayollar va erkaklar tengligini ta'minlashning naqadar zarurligini yuqorida keltirilgan so'zlardan ham bilish mumkin. Ushbu maqolani yozish vaqtida qaerda o'qishmas qanday o'qish muhimligini tushundim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek ayollari tarix sahnasida. Toshkent. Fan nashriyoti .2002.
2. O'zbekistonning ma'rifatparvar ayollari 1- jild.Toshkent.fan.2021.
3. O'zbekiston tarixidagi ilk kashshof ayollar. Gazeta.uz 2022.

